



MAHALLIY VAKILLIK HOKIMIYATI: ISLOHOTLARNING YANGI DAVRI

Yakubjonov Nuriddin

Toshkent davlat yuridik universiteti “Davlat boshqaruvi huquqi” mutaxassisligi magistranti
nuriddinyakubjonov@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15599855>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil
Ma’qullandi: 28-May 2025 yil
Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEYWORDS

mahalliy davlat hokimiyati, hokimiyatlar bo’linishi, xalq deputatlari Kengashlari, ijro hokimiyati, mahalliy demokratiya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan bo‘lib. Bunda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining nafaqat markaziy, balki mahalliy darajada ham ahamiyatini ta’kidlab, bu tamoyil davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, demokratik boshqaruvni amalga oshirish va bir hokimiyat tarmog‘ining haddan tashqari hukmronligining oldini olish uchun zarur ekanligini asoslantirgan.

Hokimlarning mahalliy vakillik organlari rahbari sifatidagi vakolatlari bekor qilingani va ular faqat ijro hokimiyati rahbari sifatida faoliyat yuritishi belgilangani ta’kidlab o‘tilgan. Bu o‘zgarishlar mahalliy darajada hokimiyatlar bo‘linishi tamoyilini amalda qo‘llashning dolzarbligini ko‘rsatadi va mahalliy demokratiya institutlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahalliy boshqaruv tizimida vakolatlarning oqilona taqsimlanishi, mahalliy Kengashlarning mustaqilligi va nazorat mexanizmlarining kuchayishi, shuningdek, muammolarni iloji boricha mahalliy darajada hal etish zarurligi qayd etiladi. Bu jarayonlar O‘zbekistonda markaziy boshqaruvdan mahalliy boshqaruvga o‘tish, ya’ni decentralizatsiya va regionalizatsiya tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi va demokratik jamiyat qurilishiga hissa qo‘shadi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yilda yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan mahalliy hokimiyat tizimida tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. Hokimlarning vakillik organlari rahbari sifatidagi vakolati bekor qilinib, hokimiyatlar bo'linishi tamoyili mahalliy darajada amalda joriy etildi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz barcha bo'g'indagi deputatlarimiz timsolida zimmasidagi mas'uliyatni chuqur anglaydigan, Yangi O'zbekistonni barpo etish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta'minlash yo'lida o'zini ayamadan tinimsiz harakat qiladigan, bor bilim va tajribasini Vatan ravnaqi uchun safarbar etadigan fidoyi insonlarni tasavvur qilamiz"[2]. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari muayyan hududdan o'sha hududda istiqomat qiladigan aholi tomonidan saylov orqali shakllantirilgan vakillik hokimiyat organlari tushuniladi. Mazkur vakillik tuzilmasining faoliyati demokratik boshqaruvning mahalliy darajasidagi tipik namunasi hisoblanadi. Zero, bu "jamiyatni isloh qilish jarayonlariga keng ommani ko'proq jalb etish, mintaqalar imkoniyatlarini ishga solish, mahalliy hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirish uchun qulay demokratik muhitni yaratadi. Ushbu muhitni joylarda ta'minlash uchun esa saylangan xalq vakillarining mahalliy boshqaruvdagi amaliy ishtiroki hamda aholi irodasi va manfaatlarini aniq aks ettirish vositalarining mavjudligi taqozo etiladi"[12].

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya mahalliy davlat hokimiyati tizimida muhim o'zgarishlarni amalga oshirdi. Xususan, Konstitutsiyaning 120-moddasiga ko'ra, hokimlarning mahalliy vakillik organlari rahbari sifatidagi vakolati bekor qilindi va ular faqat ijro hokimiyati rahbari sifatida faoliyat yuritishi belgilandi.

Bu holat mahalliy darajada hokimiyatlar bo'linishi tamoyilini qo'llashning dolzarbligini ko'rsatadi va bu masalani ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Mahalliy hokimiyatlar bo'linishi masalasi ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. O'zbekistonlik tadqiqotchilar – O.Xusanov, B.Jo'rayev, G.Malikova, Y.Jumayev, A.Dadasheva, G.Ismailova, D.Bekchanov, N.Dexkanov, Q.Umidullayev, Z.Israilova, F.Jo'raqulov, I.Ruzmetov, A.Xolov, A.Azizxo'jaev, Sh.Hamdanova va A.Babadjanov mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy asoslarini tahlil qilgan. Ular mahalliy vakillik va ijro hokimiyati o'rtasidagi vakolatlarni ajratish, mahalliy kengashlarning mustaqilligini ta'minlash va demokratik boshqaruvni kuchaytirish zarurligini asoslab berishgan.

Hokimiyatlar bo'linishi va nazorat mexanizmlari masalalari xorijiy olimlar S.A.Avakyan, Hineman Ch.M. va V.Murichev tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular demokratik boshqaruv nazariyasini rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu islohotlarning huquqiy asoslari va amaliy ta'sirini tahlil qilish, rivojlantirish yo'llarini belgilash.

Tadqiqot metodlari: Normativ-huquqiy tahlil metodi, tizimli tahlil metodi, ilmiy adabiyotlar tahlili va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Xorij tajribasi

Germaniyada mahalliy o'zini o'zi boshqarish yuqori darajada rivojlangan va konstitutsiyaviy kafolatlarga ega. Kommunal kengashlar (Gemeinderat) mahalliy vakillik organlari bo'lib, ular to'g'ridan-to'g'ri xalq tomonidan saylanadi. Merlar ijro hokimiyatini boshqaradi va ko'pincha professional menejerlarga o'xshash faoliyat yuritadi. Germaniya

tizimining o'ziga xos xususiyati shundaki, kommunal o'zini o'zi boshqarish huquqi federal konstitutsiyada kafolatlangan va bu huquqni cheklash faqat qonun asosida mumkin. Kengash va mer o'rtasida aniq vakolat taqsimoti mavjud bo'lib, kengash strategik qarorlar qabul qilsa, mer ularni amalga oshiradi. Bundesrat (federal kengash) tizimi orqali mahalliy manfaatlar federal darajada ham ifodalanadi[4].

Fransiyada mahalliy ma'muriyatning uchta asosiy pog'onasi mavjud: kommuna, departament va mintaqqa. Bular bir tomondan milliy darajada qabul qilingan ma'muriy qarorlar amalga oshiriladigan hududlar, boshqa tomondan esa o'z vakolatlariga ega bo'lgan mahalliy hokimiyat organlaridir. Yuridik jihatdan mahalliy hokimiyat o'z nomi, hududi, byudjeti, xodimlari va boshqalarga ega bo'lgan ommaviy-huquqiy korporatsiya bo'lib, markaziy hokimiyatga nisbatan muayyan vakolatlar va ma'lum darajada mustaqillikka ega. Kommuna Fransiya ma'muriy tizimining eng quyi bo'g'inini tashkil etadi. Departament va mintaqqa kabi, kommunada ham qaror qabul qiluvchi organ (the municipal council) va ijro etuvchi organ (the Mayor) mavjud bo'lib, ular munitsipal kengash tomonidan saylanadi. Mer ikki tomonlama vazifani bajaradi: u ham kommunaning saylangan rahbari, ham unda davlat vakili hisoblanadi. Kommunaning bosh ijrochisi sifatida mer munitsipal kengash qarorlarini amalga oshiradi[5].

Tadqiqot mavzusining nazariy-huquqiy tahlili

Hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining nazariy asoslarini chuqurroq tushunish uchun xorijiy tajribada olimlar nazariyasini ko'rib chiqamiz. Rossiyalik olim S.A.Avakyanning fikricha, tarixiy nuqtayi nazardan hokimiyat tarmoqlarini bo'lish ehtiyoji hamda ularning har biri uchun yo'nalish va vakolatlarni belgilab berish, hokimiyatning vazifa va funksiyalarini real amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, hokimiyatning bo'linishi, uning mas'uliyati, faoliyatining borishi va mavjud muammolarni hal qilish talabini oshiradi. Bunday ajratish har bir hokimiyat majburiyatlarining aniq va ravshan belgilab berilishini anglatadi va hokimiyatlar birligiga ta'sir ko'rsatmaydi, aksincha ularning har biriga boshqalarining faoliyatini kuzatish va to'ldirish, zaruriyat tug'ilganda nazorat qilish huquqini beradi. Hokimiyatlar o'zaro munosabatlarining bunday tartibi tarixiy jihatdan shakllangan bo'lib, "o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati" tizimi nomini olgan[6]. Bunda ko'rishimiz mumkinki hokimiyat tarmoqlari bir-birining mustaqilligini saqlagan holda nazorat qilish demokratiyaning asosiy sharti va tamoyili hisoblanib, xuddi tarozidek - bir tomoni og'ir bo'lsa, ikkinchi tomoni muvozanatni tiklaydi, ya'ni bunda ma'lum bir tomon o'z manfaatlarini ko'zlagan holda faoliyat olib borgan taqdirda ikkinchi tomon mustaqil holda nazorat qilib demokratiyani ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mahalliy hokimiyatlar bo'linishi tamoyilini bir qator aniq normalar orqali mustahkamlab bergan bo'lib:

Konstitutsiyaning 120-moddasiga muvofiq, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari sifatida belgilanadi. Ushbu Kengashlarga ularning deputatlari orasidan qonuniy tartibda saylanadigan rais rahbarlik qiladi. Muhim jihatlardan biri shuki, viloyat, tuman yoki shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emas. Shuningdek, xalq deputatlari Kengashlarining vakolat muddati besh yil etib belgilangan bo'lib, ayni bir shaxs ketma-ket ikki muddatdan ortiq ushbu lavozimga saylanishi taqiqlanadi. Mazkur konstitutsiyaviy normalar

mahalliy vakillik hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash bilan birga, hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining amalda ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi[1].

Konstitutsiyadagi ushbu vakolatlar bo'linishini bir qator olimlar o'z ilmiy ishlarida ta'kidlab o'tgan edi. Jumladan, N.Dexkanovning "mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, hokimlar faoliyatini xalq deputatlari Kengashlari va deputatlar tomonidan nazorat qilishni kuchaytirish maqsadida Kengashning rahbari va hokim vazifalarini bajarishni alohida shaxslarga topshirish lozim", degan taklifi avvalroq O.Xusanov, B.Jo'rayev kabi tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan edi[10]. Bundan ko'rinadiki, Konstitutsiyadagi vakolatlar bo'linishi nafaqat huquqiy islohot, balki ilmiy asosga ega muhim choradir. Vakillik va ijro hokimiyati rahbarlarini ajratish bo'yicha olimlar ilgari surgan takliflar amaliyotda o'z ifodasini topdi. Bu esa mahalliy hokimiyatning mustaqilligini va nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 122-moddasi esa xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlarini aniq belgilab beradi:

Birinchidan, tegishli mahalliy budjetlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish;

Ikkinchidan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;

Uchinchidan, hokimni lavozimga tasdiqlash va uning faoliyati yuzasidan hisobotlarini eshitish huquqi;

To'rtinchidan, Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirishi belgilangan[3].

Tadqiqotchi F.Jo'raqulovning fikricha, ayrim vazifalar va vakolatlarni tegishli tuzilmalarga topshirmay turib davlat o'zining eng muhim vazifalarini to'la bajara olmasligini, boshqa kam ahamiyatli ishlar bilan band bo'lib qolishini jahon tajribasi tasdiqlab berganligini e'tiborga olsak, o'z zimmasiga haddan tashqari ko'p vazifalarni olgan davlat oldida har xil muammolar doimiy ravishda ko'ndalang bo'lishi o'z isbotini topgan" [8]. Huquqshunos A.Maxmudov asosli qayd etganidek, "Hududiy muammolarni oldindan ko'ra bilish, ularni kengashlar hamda ularning doimiy komissiyalari yillik rejalariga kiritgan holda o'rganish va muhokamaga tayyorlashda nodavlat notijorat tashkilotlar, shuningdek, siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarini imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega"[13]. Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda, davlat subsidiarlik tamoyili asosida samaradorlikni saqlagan holda, muammolarni iloji boricha mahalliy darajada, ya'ni xalqqa eng yaqin bo'lgan organlarda hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tizim fuqarolarning boshqaruv jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlab, demokratik tamoyillarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 02.02.2024 yildagi PF-28-son Farmoniga asosan, Jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini oshirish maqsadida xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bir qator vakolatlar berilishi taklif etilgan. Masalan: davlat bog'cha va maktablarini tashkil etish, yo'lovchi va yuk tashish ta'riflari, fuqarolarning alohida toifalari uchun imtiyozli ta'riflar va boshqalar. Huquqshunos olim A.Mahmudovning fikriga qo'shilgan holda, deputatlarni xalqning ishonchli vakili sifatida, mahalliy davlat hokimiyati vakillik

organlarini esa, eng avvalo, xalq nomidan uning manfaatlarini ko'zlab faoliyat yurituvchi organ sifatida e'tirof etish mumkin. O'z navbatida, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari, deputatlar esa, o'z faoliyatini amalga oshirishda asosiy e'tiborni ushbu ishonchni oqlashga qaratishlari lozim[9].

Rossiyalik huquqshunos olim K.V.Murichevni fikriga ko'ra, vakillik hokimiyatining yetarlicha samarali va ta'sirchan faoliyat ko'rsatmaslik sabablaridan biri – mazkur hokimiyat turining tizimi hanuzgacha shakllanmaganligi, mahalliy vakillik organlari nisbatan mustaqil maqomga ega bo'lishi, mazkur hokimiyat tizimida yaqqol ajratib qo'yilgan iyerarxiyaning mavjud emasligi va yuqori turuvchi hamda quyi organlar o'rtasida bir-biriga bo'ysunish alomatlari mavjud emasligidir[10]. Bu fikrga qo'shilgan holda va qo'shimcha qilib mahalliy deputatlarga ko'proq vakolat berilishi - bu muammolarni hal etish yo'nalishidagi muhim qadam. Ammo muvaffaqiyatli faoliyat uchun nafaqat vakolatlar berish, balki aniq tizim, tartib va mas'uliyatli mexanizmlarini yaratish ham zarur. Qonun ishlab chiqish bilan bir qatorda uni amalga oshirish uchun yaxshi tashkil etilgan tizim ham kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish to'g'risida"gi 04.04.2024 yildagi KQ-705-IV-son qarorida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiya ishlab chiqish belgilangan bo'lib, unda quyidagi maqsadlar belgilangan:

- mahalliy Kengashlarning nazorat faoliyatini tubdan takomillashtirish, ular tomonidan hudud manfaatlariga oid muhim va dolzarb masalalar yuzasidan Oliy Majlis Senatiga takliflar kiritish mexanizmini belgilash;
- mahalliy Kengashlarning norma ijodkorligi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish, qarorlar ishlab chiqishda jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash;
- mahalliy Kengashlar deputatlarining maqomi va faoliyatining asosiy kafolatlarini yanada kuchaytirish;
- mahalliy Kengashlar faoliyatida o'zaro va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- mahalliy Kengashlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, byurokreatiyaga qarshi choralarni belgilash;
- mahalliy Kengashlarning mahalliy ijroiya hokimiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligini takomillashtirish;
- mahalliy Kengashlarning siyosiy partiyalar bilan aloqalarini kuchaytirish[11].

Tadqiqotchi A.Xolovning ilmiy ishida boshqaruv qarorlari qabul qilishning ilmiy-nazariy asoslarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlari qabul qilishning institutsional jihatlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlari qabul qilishning mexanizmini takomillashtirish yo'llarini tahlil qilgan bunda viloyat, tuman va shahar hokimiyatlari boshqaruvida boshqaruv qarorlari qabul qilishning samarali usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, vujudga kelgan muammoni markazdan turib emas, balki joylarda asosli hal qilish, muammoning vujudga kelishini chuqur o'rganish lozim. Undan tashqari, boshqaruv qarorlari qabul qilishda erishilgan natijani uni qabul qilishdan oldin taxmin qilingan natija bilan taqqoslash zarur. Bu yuzaga kelgan kamchiliklar keyingi qabul qilinadigan qarorlarda takrorlanmasligining oldini oladi[7]. A.Xolovning fikriga ijobiy qaragan holda "muammoni markazdan turib emas, balki joylarda asosli hal qilish" prinsipi zamonaviy boshqaruv nazariyasining eng samarali yondashuvlaridan biridir. Bu yerda muhim

jihat shundaki, mahalliy muammolar o'zining mahalliy kontekst va xususiyatlariga ega bo'ladi, shuning uchun ularni mahalliy darajada hal qilish ko'proq samarali natija beradi.

Mazkur amalga oshirilayotgan islohotlarning markaziy boshqaruvdan mahalliy boshqarishga o'tish jarayoni boshlanganini, hududiy boshqaruv tizimini mustahkamlash orqali mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan qarorlar qabul qilish mexanizmini yaratish jarayoni ketayotganligi ya'ni decentralizatsiyadan (markaziy boshqaruvdan qochish) regionalizatsiyaga (hududiy boshqaruvni oshirish) maqsad qilib olinganini ko'rishimiz mumkin, ushbu faoliyat tizimli va puxta rejalashtirilgan jarayon sifatida amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha mahalliy xalq deputatlar Kengashlarni rivojlantirish konsepsiyaning asosiy maqsadi – mahalliy vakillik organlarining vakolatlari, nazorati, jamoatchilik ishtiroki va samaradorligini kuchaytirish, decentralizatsiya jarayonini amalga oshirish va boshqaruv qarorlarini joylarda asosli va samarali qabul qilishga qaratilgan.

Hokimiyatlar bo'linishi tamoyili mahalliy darajada muvaffaqiyatli joriy etilmoqda, lekin to'liq samaradorlik uchun qo'shimcha choralar ishlab chiqish zarur.

Xulosa

Mahalliy davlat hokimiyati tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar demokratik rivojlanishning muhim bosqichini belgilaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya orqali hokimlarning vakillik va ijro hokimiyati vakolatlarini ajratish, xalq deputatlari Kengashlariga kengaytirilgan vakolatlar berish va mahalliy muammolarni mahalliy darajada hal qilish tamoyilini joriy etish orqali hokimiyatlar bo'linishi tamoyili amalda qo'llanilmoqda. Bu o'zgarishlar mahalliy demokratiyani mustahkamlash, fuqarolarning boshqaruv jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlash hamda markaziy boshqaruvdan mahalliy boshqaruvga o'tish ya'ni decentralizatsiya va regionalizatsiya jarayonlarini amalga oshirishga xizmat qiladi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida muhim qadamdir. Biroq, ushbu islohotlarning samarali amalga oshirilishi uchun yangi tahrirdagi Konstitutsiya va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan vakolatlar, javobgarlik va o'zaro munosabatlarni aniq belgilash, ularning amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda mavjud tizimlarni takomillashtirish zarur. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, hisobotlarni muntazam tinglash va baholash amaliyotini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Kengashlarning haqiqiy mustaqilligini ta'minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish, Kengash deputatlari uchun yangi Konstitutsiya talablarini chuqur o'rgatish, zamonaviy boshqaruv va huquqiy bilimlarni oshirish bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. — T.: O'zbekiston, 2023.
2. © 2008-2025 «Газета.uz». info@gazeta.uz
3. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1993-yil 2-sentabr, № 913-XII.
4. Kuhlmann S. Local Government in Germany: Challenges and Innovations // Local Government Studies. — 2019. — Vol. 45. — №3. — P. 312-329.
5. Nick Swift and Guy Kervella. A complex system aims to bring French local government closer to the people. http://www.citymayors.com/france/france_gov.html
6. Xamdamova Sh.M. Mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linish printsipini qo'llash. PhD dissertatsiyasi. — T.: 2020.

7. Yuldashev A. Mahalliy boshqaruvga oid milliy tadqiqotlar tahlili. Educational Research in Universal Sciences (ERUS).— 2023.—Vol. 2.— №6. —B.172-186.
8. Jo'raqulov F. N. Fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida davlat ijroiya hokimiyati tizimini modernizatsiyalash. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent, O'zMU, 2018. - 264 b.
9. Maxmudov A. O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. -T.: 2019.- B.16.
10. Мурычев К.В. Система представительных органов власти в Российской Федерации. Автореф. дисс-ии на соис. уч. степени канд. юр. наук – М. 2010. С.6
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish to'g'risida" 04.04.2024 yildagi KQ-705-IV-sonli Qarori.
12. Hineman Charles M. Bureaucracy in Democracy. – Harper, 1950. P. 12 – 15.
13. Maxmudov A. Faollik va tashabbuskorlik mahalliy vakillik organlari deputatlaridan ham talab etiladi // Huquq va burch. – 2013. – № 8. – B.12. //www.huquqburch.uz

